

*Andijon davlat pedagogika instituti Fizika va texnalogiya fanlar kafedra  
o‘qituvchisi*

**Mamajonova Guluzro Abdurashitovna v/b dotsent**

*Andijon davlat pedagogika institutining Texnologik talim yo‘nalishi 2-  
bosqich talabasi*

**Qodirova Nargiza Olimbek qizi**

*Andijon davlat pedagogika institutining Texnologik talim yo‘nalishi 2-  
bosqich talabasi*

**Abduhalilova Munisa Xayitali qizi**

*Andijon davlat pedagogika institutining Texnologik talim yo‘nalishi 2-  
bosqich talabasi*

**Mamasodiqova Gulasal Maxamadjon qizi**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Zargarlikning IV-V asrlardan boshlanib  
hozirgi asirgacha asrab kelingan zargarlik hunar lar haqida batafsil yoritilgan.  
O‘rta Osiyodagi o‘zaro ichki urushlar zargarlik san’atining rivojlanishiga salbiy  
ta’sir etdi. Ustalardan Dadamuhamedovlar sulolasi, G. Yo‘ldosheva, R.  
Muhametshin, M. Nozirxonov, Sh. Nizomov, I. Olimov, G. Tosheva va boshqalar  
zargarlik an‘analarini o‘rganish, rivojlantirish va yangi yo‘nalishlarni kashf  
etish borasida qator ishlarni amalga oshirgani haqida .*

**Kalit so‘zlar:** *Zargarlik, oltin, badiy bezak, gavhar, shabaka, marjon,  
naqsh, mis buyumlari*

Zargarlik badiiy hunarmandlik sohasi; oltin, kumush, mis, qalay kabi  
rangli metallardan zeb-ziynat buyumlari (taqinchoqlar) va bezak buyumlari  
yasash kasbi. Zargarlar bezak buyumlari tayyorlashda quyish, bolg‘alab (zarb  
berib) yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish), o‘yib yoki bo‘rttirib  
naqsh yasash, bosma, zig‘irak, sovotkori, qolipaki, shabaka kabi usullardan  
keng foydalanadi. Qimmatbaho toshlar (gavhar, feruza, dur, hatsik va b.)ga  
ishlov berib, zargarlik buyumlari (bargak, bibishak, bilaguzuk, bozuband,  
bozgardon, boldoq, buloqi, bo‘yintumor, gajak, duotuzi, jevak, jig‘a, zarkokil,  
zebigardon va boshqalar yasaladi.

Zargarlik: tillaqosh (Toshkent, 1880-yil); Dalvarzintepadan topilgan  
ayollar taqinchog‘i (pektoral, milotdan avval 1-asr) don, zulf, isirg‘a, kokil,  
oyboldoq, osmatuzi, sanchoq, tavq, tilla bargak, tilla tuzi, tillaqosh, turunj,  
uzuk, shokila, qashqarbandoq, halqa kabi yaratilgan.

IV-V asrlarda zargarlik buyumlari kam ishlangan. Ular tosh, shisha, pastalardan qilingan. Masalan. Xorazmda shishadan qilingan sher va qurbaqa shaklidagi munchoqlar topilgani Bolaliktepadagi topilmada V asr oxiri VI asr boshlarida ishlangan devoriy rasmida ayol kishining qulog'i va barmog'ida zargarlik taqinchoqlari tasvirlangan. Afrosiyobdagagi VI-VII asrga mansub devoriy rasmida erkak kishining qo'lida sovg'a taqinchoqlarni olib kelayotgani tasvirlangan. Bularidan tashqari ayol sochlarida osma taqinchoqlar osilganligi tasvirlangan.

XIII-XIV asrlargacha zargarlik buyumlarida ko'pincha hayvonlar tasvirlangan bo'lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozisiyaga kirib o'ziga xos ko'rinish berdi. XVIII asrda O'rta Osiyodagi o'zaro ichki urushlar zargarlik san'atining rivojlanishiga salbiy ta'sir etdi. XVIII asrda mo'g'ul bosqinchilaridan so'ng birinchi marta oltin tangalar ishlab chiqarila boshlandi. Qurol aslahalar ajoyib qimmatbaho toshlar, shisha, billur, oltin va boshqalar bilan bezatildi. Zargarlar juda yumshoq va yorqin bo'lмаган nefrit va kumushdan, juda yorqin oltin va nefrit kabilarni ishlatdilar.

Xalsedon - u marmar dengizi qirg'og'idagi qadimgi Xalkedon shahri nomidan olingan bo'lib rangi oq, kulrang, havorang, sariq, ko'k, qizg'ishqo'ng'ir bo'ladi. Uning dog'dog' yoki yo'lyo'l turlari ko'pichqchilik abraziv materiallar sifatida, soat toshlari tayyorlashda hamda zargarlik buyumlari tayyorlashda ishlatiladi.

Arxeologik topilmalar zargarlik san'ati qadimgan mavjudligini ko'rsatadi. Qad. Misr, Yunoniston, Eron, Xitoy zargarlari zargarlik buyumlari tayyorlashda marjon, nefrit, kahrabo va b.dan keng foydalangan. O'zbekiston Respublikasining ko'pgina muzeylarida saqlanayotgan topilmalar respublika hududida (Yunon Baqtriya podsholigi, miloddan avval 3—2-asr; Qadimgi Xorazm, asosan, miloddan avval 1ming yillik o'rtalaridan Xorazmda zargarlarning obro'si bõlgan va hurmat qilingan. 8-asr gacha) zargarlik rivoj topganini ko'rsatadi. Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz va b. shaharlarda zargarlik rivojlangan. 19-asr oxiri 20-asr boshida o'ziga xos ishlanishi, shakli, bezaklari, xususiyatlari bilan bir-biridan farq qilgan xilmashil zargarlik buyumlari keng tarqalgan, ziynat buyumlari to'plamlari vujudga kelgan. Asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan zargarlik san'ati 20-asr boshlarida inqirozga yuz tutdi, xalq ustalarining soni qisqara boshladи.

Ustalarga qimmatbaho xom-ashyolardan foydalananishga yo'1 qo'yilmadi. zargarlik fabrikalarida ijod qilgan usta-zargarlar ish jarayonida astas-ekinlik bilan mavjud an'analardan yiroqlasha bordilar. Natijada ular tomonidan ishlab chiqarilgan buyumlarning shakli-shamoyili o'zgarib "eklektik" manzarani

yuzaga keltirdi va ba'zi an'analarni butkul yo'qolishiga olib keddi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng zargarlik san'ati jonlandi. Qimmatbaho metall materiallardan foydalanishga imkon yaratildi.

Ijod qilayotgan ustalar, asosan, 2 yo'nalishda: mahalliy - zargarlik unutilib borayotgan an'analarni qayta tiklash va an'anaviy - zamonaviy uslubda zargarlik buyumlari yaratish ustida ijod qilmoqdalar. An'anaviy zargarlik buyumlari — tumorlar, isirg'alardan "uch ko'zacha", "oy boldoq", "er bidor", "qashqarboldoq" va b. yaratildi. Ustalardan Dadamuhamedovlar sulolasi, G. Yo'ldosheva, R. Muhametshin, M. Nozirxonov, Sh. Nizomov, I. Olimov, G. Tosheva va boshqalar zargarlik an'analarini o'rganish, rivojlantirish va yangi yo'nalishlarni kashf etish borasida qator ishlarni amalga oshirdilar. Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va boshqa zargarlik maktablarning ayrim chizgilari bir-biriga uygunlashtirilib, yangi zamonaviy zargarlik buyumlari yaratilmoqda. A. Ulumbekovaning "Ayol" (1998), "Afrika" (1999), "Baliqcha" (1999); E. Gostevning "Parvoz" (1998) asarlari, R. Muhametshin ijodiy namunalari ("Hayot daraxti", 1993; Bilaguzuklar: ilon shaklidagi bilaguzuk (Baqtriya, mil. av. 3-asr); soatli bilaguzuk (20-asr). Zargarlik sanoati - yuksak badiiy ishlov berish yo'li bilan nodir metallar va qimmatbaho toshlardan, shuningdek, boshqa metallardan buyumlar, taqinchoqlar ishlab chiqaradigan sanoat tarmog'i. Zargarlik sanoatida xom ashyo sifatida qimmatbaho va rangli metallar (platina, oltin, kumush va b.), ularning qotishmalari, qimmatbaqo va yarim qimmatbaho toshlar (feruza, fionit, olmos, aqiq, zumrad, yoqut), tabiiy toshlar, plastmassa, suyak, emal, shisha va b. ishlatiladi.

Shaxrisabz va Burchmulla zargarlik korxonalarida zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish bilan birga qimmatbaho va qimmatbaho bo'lмаган toshlarga qirrali ishlov beriladi. "Fonon" IIB ilmiy-texnika lab.larida zargarlik sohasida ishlatiladigan turli rangdagi sun'iy kristallar o'stiriladi.

Zargarlik sanoati mahsulotlari sifati va asillik darajasini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8 fevraldag'i farmoni bilan tashkil qilingan Davlat asillik darajasini belgilash palatasi nazorat qiladi. 2001-yil 7 dekabrda "Qimmatbaho metallardan yasalgan buyumlarning asillik darajasi va tamg'alanishi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

#### Zargarlikda ishlatiladigan asboblar

Boshqa kasblar singari zargarlikda ham o'ziga xos asbobuskunalar ishlatiladi. Loyli o'choq, charm, o'tga chidamli loylar, payvand, naycha, temir kisqichlar, bolg'achalar, metall taxta, metall qisqichlar, pargor, zubilalar, misgarlikda ishlatiladigan ba'zi bir keskich asboblar, charx tosh, kichkina qisqichlar, qoliplar, metalldan qilingan har xil diametrli yarim sharsimon

chuqurchali qolipchalar, tunkalarni qirqish uchun qaychilar, ombirlar, payvandlovchi asbob va boshqalar ishlataladi.

Punson - (puanson) zargarlikda ishlataladigan asbob bo'lib metallga naqsh ishslashda ishlataladi.

Kirya - temir yoki po'latdan yasaladi. Uning bir necha kattalikdagi teshigi bo'lib oltin yoki kumush oldin kattaroq, keyin kichikroq teshikdan o'tkazib tortiladi. Oltin yoki kumush sim hozir shu xilda tayyorlanadi. Sim kiryaning naqsh o'yilgan joyiga qo'yib bolg'alansa natijada naqsh hosil qilinadi, Hosil qilingan simni kirkira deb ataladi. U bezak buyumlarida ishlataladi.

Tovlangan metall yapaloq yoki chorsi ombir bilan qisib sandonga olinadi. Shundan so'ng tayyorlanayotgan masalan, bilaguzuk korcho'p asbobida urib egiladi. Uni egovlab chizib bilaguzuk ko'rinishiga keltiriladi. Bilaguzuk kirini ketkazib, pardoz beriladi. Uni qora kislotada tozalanadi. Zargarlik buyumlarini o'yma va qolipi usulda yasaydilar.

Zargarlik buyumlariga ishlov berish jarayoni

Ularni turli qimmatbaho toshlar: marjon, shisha, sadaf va boshqalar o'rnatib bezatiladi. Hozir Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon va boshqa zamонавиy zargarlik fabrikalarida ba'zi bir og'ir qo'l mehnatlarini avtomatlar bajaradi. Umuman aytganda ishlov berish jarayonida ma'lum usullarga bo'lingan bo'lib, bezak ashyolarining xillarini alohida aloxida ustalar yasaydilar. Shu jarayonlar ham sex a'zolariga taqsimlab berilgan. Bezak buyumlarini tayyorlash ham birmuncha mexanizasiyalashgan.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR :**

1. Kran, E. 1999 yil. Asalarichilik va asal ovining jahon tarixi. Nyu -York: Routledge. ISBN 0415924677
2. Grem, J. M., J. T. Ambrose va L. L. Langstrot. 1992 yil Kovan va asal ari: "Uyadagi asalarichilik va asalarichilik" an'anasini davom ettiradigan asalarichilik bo'yicha yangi kitob. Hamilton, IL: Dadant. ISBN 0915698099
3. Nash, G. B. 2003 yil. Amerika tarixi ensiklopediyasi. Nyu -York: Fayldagi faktlar. ISBN 081604371X